



**IJTIMOIIY SOHADA XIZMATLARNI TASHKIL QILISH VA UNGA
TA'SIR QILUVCHI OMILLAR**

Utkirov Mahmudbek Baxodir o'g'ri

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy sohada xizmatlarni tashkil qilishning asosiy tamoyillari va bu jarayonga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Ijtimoiy xizmatlar sohasida samarali tizimlarni yaratish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, moliyaviy resurslar va inson kapitalining roli muhokama qilinadi. Maqolada ijtimoiy xizmatlarning samaradorligini oshirishda davlat siyosati, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalarning o'rni ko'rsatilgan. Boshqa tomondan, ijtimoiy xizmatlar tizimini boshqarishning qiyinchiliklari va ular ustidan amalga oshiriladigan nazorat mexanizmlari ham muhokama etilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy xizmatlar, xizmatlarni tashkil qilish, omillar, samaradorlik, davlat siyosati, ijtimoiy soha, iqtisodiy omillar, madaniy omillar, innovatsion yondashuvlar, boshqaruv tizimi*

Kirish. Ijtimoiy xizmatlarni iste'mol bozorida ayirboshlash jarayoniga muvofiq tovarlashgan va tovarlashmagan xizmatlarga bo'lish mumkin. Tovarlashgan xizmatlar pulli bo'lib, bozor ob'ektiga kiradi va har qanday tovar singari oldi-sotdi qilinadi. Ularning asosiy xususiyati ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining bir-biridan ajralmasligi bilan ifodalanadi. Ular bir vaqtda yuz berib, ko'rsatilgan xizmat bir vaqtning o'zida iste'mol qilinadi va puli to'lanadi. Tovarlashmagan xizmatlarda ayirboshlash aksincha alohidalashib, puli oldindan yoki keyin to'lanishi mumkin. Ko'rsatilayotgan xizmatlar asta- sekinlikda ma'lum vaqt o'tishi bilan iste'mol qilinadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatga ega va bu qiymat ijtimoiy mahsulot qiymatiga qo'shiladi (Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika: 100 savolga javob. -T.: Mehnat, 1998. -B.129.). Ijtimoiy xizmatlar sotilganidan keyin ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha qiymat esa foydaga aylanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ekt foyda olishni, sarflagan kapitaliga nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bois ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasi bir tomondan, iste'mol qiymatlarini yaratish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan qiymatning o'sishi jarayoni





bo'lib ham hisoblanadi.


Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatining muhim sharti ishlab chiqarish ekan, bu jarayonda iqtisodiy resurslar ishlatilib, xizmatlardan iborat ijtimoiy ne'matlar yaratiladi.

Ijtimoiy hayot uzluksiz bo'lganidek, iqtisodiy faoliyatda ijtimoiy xizmatlar harakati ham uzluksizdir. Ijtimoiy xizmatlar o'z harakati doirasida bir- biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlar: ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonlaridan o'tadi. Ammo, ijtimoiy xizmatlar harakati bosqichlari ham bir-biridan farq qiladi va har bir bosqich resurslarning turlicha ishtiroki bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlar turlariga bog'liq holda kishilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar tashkil topadi.

Shuni aytish mumkinki, resurslar harakati tufayli biron bir xizmat yuzaga keladi. Chunki resurslar ma'lum tizimni tashkil etadi, ular har xil unsurlardan iborat, bu unsurlarning bajaradigan vazifalari bir xil bo'lmaydi, ya'ni ular bajaradigan vazifalari qachonki bir biriga moslashgan taqdirda ijtimoiy xizmatlar sodir bo'ladi. Moddiy, moliyaviy omillar inson omili bilan birikkanidagina ijtimoiy xizmatlar yaratiladi (1-rasm).

Ishlab chiqarilayotgan ijtimoiy xizmatlar bilan ularni iste'mol qilish orasida murakkab dialektik ziddiyatli aloqa mavjud bo'lib, ko'rsatilayotgan xizmatlar qanchalik muhim bo'lmasin, ular iste'molga xizmat qilgandagina ahamiyatga ega bo'ladi. Iste'mol ijtimoiy xizmatlarning maqsadini va shu bilan bir vaqtda harakatlantiruvchi sababini tashkil etadi.

Odatda mahsulotlarning yaratilishi va ehtiyojlarning qondirilishi bir vaqtning o'zida yuz bermaydi, chunki iste'mol ishlab chiqarishdan so'ng keladi. Ammo ijtimoiy xizmatlar sohasida shunday xizmatlar borki, ularning yaratilishi ayni vaqtning o'zida ehtiyoj qondirilishini bildiradi. O'z navbatida ehtiyojlarning vujudga kelishiga avvalo yaratilayotgan xizmatning o'zi sabab bo'ladi. Shu bois ijtimoiy xizmatlar sohasida resurslar ishtiroki o'zining tezkorligi va ildamligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Ijtimoiy sohada xizmatlarni tashkil qilish omillari

Har bir ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi sub'ekt, xizmat ko'rsatish uchun muayyan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanib, xizmat birligiga sarflanayotgan resurslar xarajatini kamaytirishi hisobiga daromadlarini oshirishga harakat qiladi.

Resurslarning cheklanganligi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning muqobil variantlarini taqozo etadi. Chunki ijtimoiy xizmatlar sohasidagi tajribalar va tadqiqotlarning ko'rsatishicha xizmat xarajatlarini kamaytirishning muhim bosqichi va muqobil yo'li bu resurslar tejamkorligi ekanligini ko'rsatmoqda. Resurslarni tanlash muqobilligi undan foydalanayotgan xizmat ko'rsatuvchi korxona va xo'jaliklarda quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:

birinchidan, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar xarajatlarini maksimal darajada kamaytirish, mavjud resurslarning tejamli turlarini tanlab olish;

ikkinchidan, ijtimoiy xizmat sifatida aniq ustunlikka erishish va sifatning muntazam oshib borishini ta'minlash;

uchinchidan, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning xizmatlarga boy assortiment bilan bozorga kirib borishi va o'z o'rinlarini egallashlari;

to'rtinchidan, dinamikani hisobga olgan holda mavjud resurslardan samarali foydalanish;

beshinchidan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni, yangi resurslarni jalb qilish



hisobiga mehnat unumdorligini oshirishga erishish.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi faoliyati ijtimoiy jarayon bo'lib, unda odamlar ma'lum tarzda birlashib xizmatlarni yaratishadi va aniq maqsadga erishadilar. Ya'ni inson o'zining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun turli vositalar, tabiat ne'matlarini moslashtiradi va ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Shu bois ham inson omili ijtimoiy xizmatlar harakati doirasining har bir bosqichida asosiy rol o'ynaydi va mazkur xizmatlarning aynan insonning rivojlanishiga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Chunki ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida aholi bandligini, barqaror iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va aholining turmush farovonligini ta'minlash hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida insonning mehnat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni o'stirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ofurov, S. (2021). *Ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish va boshqarish*. Toshkent: "Ijtimoiy rivojlanish" nashriyoti.
2. Tadjibayeva, D. (2020). *Ijtimoiy soha va xizmatlar boshqaruvi*. Toshkent: "Boshqaruv va ijtimoiy siyosat" nashriyoti.
3. Karimov, B. (2019). *Ijtimoiy xizmatlar tizimi: yangiliklar va amaliyot*. Toshkent: "Samarali boshqaruv" nashriyoti.
4. Moliya vazirligi. (2020). *Ijtimoiy xizmatlar va moliyaviy boshqaruv*. Toshkent: Moliya vazirligi nashri.
5. OECD. (2021). *Social Services and Their Impact on Public Welfare*. Paris: OECD Publishing.